

## MASOFAVIY TA'LIM: UMUMIY TUSHUNCHALAR, AFZALLIKLAR VA KAMCHILIKLAR

**Yigitaliyev Ozodbek Davronbek o'g'li**

*oyigitaliyev18@gmail.com*

*Farg'ona Davlat universiteti Tarix fakulteti ijtimoiy ish yo'nalishi 1-bosqich 24-81-guruh talabasi*

**Yuldasheva Gulbahor**

*Farg'ona Davlat universiteti, dotsent*

**Annotatsiya** Ushbu maqolada masofaviy ta'lim tizimi, uning afzalliklari va kamchiliklari haqida so'z yuritiladi. Masofaviy ta'lim hozirgi zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini tashkil qilish imkonini beradi. Shuningdek, maqolada masofaviy ta'limning imkoniyatlari, cheklovlari va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

**kalit so'zlar** Masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim, texnologiyalar, afzalliklar, kamchiliklar, o'qitish usullari.

### KIRISH

Masofaviy ta'lim – bu masofaviy formatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bilim berish tizimi. Ushbu ta'lim usuli, ayniqsa, pandemiya davrida o'z dolzarbligini namoyon etdi. Masofaviy ta'limda o'quvchilar va o'qituvchilar vaqt va makondan mustaqil ravishda bilim olish va berish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Hozirgi globallashuv jarayonida masofaviy ta'lim asosiy e'tiborni o'ziga qaratgan yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Masofaviy ta'limdan barcha qatlam vakillari foydalanmoqda. Yurrimizda masofaviy ta'lim tizimi islohotlari yo'lida izchil harakatlar olib borilmoqda. Biz yoshlar uchun masofaviy ta'lim kerakli hisoblanadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Masofaviy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosiy rol o'ynaydi. Zamonaviy platformalar, masalan, Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi vositalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada masofaviy ta'limning amaliyotda qo'llanilishi va mavjud muammolarni o'rganish uchun ilmiy manbalardan foydalanildi.

### NATIJALAR

Masofaviy ta'limning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarning vaqt va joy tanlash erkinligi.
2. Ta'lim jarayonida raqamli resurslardan samarali foydalanish imkoniyati.
3. Xarajatlarni kamaytirish (transport, joylashish kabi).
4. Ota-ona nazorati
5. Xavfsizlik
6. Zamon bilan hamnafas bo'lish

Ma'lumot uchun kun.uz manbasi o'tkazgan so'rovnomaning natijalariga ko'ra 67foiz ishtirokchilar masofaviy ta'limni

yoqlashgan. Bu esa bu ta'lim yo'nalishining ustuvor ekanligini ko'rsatadi.

Kamchiliklari:

1. Internet tezligi va sifatining pastligi ba'zi hududlarda muammolarga olib keladi.
2. Talabalar va o'qituvchilar o'rtasida bevosita muloqotning yetishmasligi.
3. O'qituvchilar va talabalar uchun texnologik savodxonlik darajasining turlicha bo'lishi.
4. Internet orqali yoshlarning buzuq yo'llarga kirib ketish ehtimolligining yuqoriligi.

### **MUHOKAMA**

Masofaviy ta'lim imkoniyatlari mamlakatimiz ta'lim tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan bo'lsa-da, uning kamchiliklarini bartaraf etish uchun internet infratuzilmasini rivojlantirish, o'qituvchilarning malakasini oshirish va talabalarga texnologik vositalarni yetkazib berish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi hududida masofaviy ta'limga asoslangan turli platforma va bilim beruvchi saytlar mavjud. Ularning aksariyati bepul. Undan xohlagan inson, xohlagan paytida foydalanishi mumkin. Biz masofaviy ta'limdan samarali foydalanishimiz zarur.

### **XULOSA**

Masofaviy ta'lim kelajagi katta istiqbollarga ega bo'lib, uning samaradorligi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, kamchiliklarni bartaraf etish orqali ushbu tizimni yanada takomillashtirish mumkin.

XXI asr internet asri bo'lganligi sababli biz masofaviy ta'limsiz bilim olishni tasavvur qila olmaymiz. Oddiy misol keltiradigan bo'lsak, men raqamli axborot texnologiyalari fanidan biron mavzuni o'rganish uchun butun boshli kursga emas, you tube platformasidan qidirib o'rganib olishim mumkin. Shu sababli masofaviy ta'lim ham an'anaviy ta'lim singari samarali va foydalidir.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Toxirov A.I. Writing control programs for computer numerical control machines. Universum: Texnika fanlari. Elektron ilmiy jurnal. 2021.
2. Toxirov A.I. Application procedure CAD/CAM/CAE-systems in scientific research. Universum: Texnika fanlari. Elektron ilmiy jurnal. 2021.